

TRANSPORT VOSITALARIDAN CHIQUYOTGAN ZAHARLI GAZLAR  
MIQDORINI TAHLILI.

Raxmonchayev Dilmurodjon To'lamirzayevich

*"Transport vositalari muhandisligi" assistenti*

*Andijon muhandislik instituti*

Hozir kunga kelib viloyatimizda transport vositalarining soni keskin ortishi natijasida transport vositalaridan chiqayotgan zaharli gazlar miqdori viloyatimizning ekologik muxitini buzib kelmoqda. Statsionar manbalardan farqli o'laroq, avtotransport majmuasidan chiqadigan ifloslantiruvchi moddalar atmosferaning yer ustki qatlamida, bevosita nafas olish mintaqasida to'planadi. Bu esa qo'rg'oshin birikmalari va boshqa zaharli, konserrogen moddalarning odam organizmida yig'ilib, uning salomatligini yomonlashishiga olib keladi. Avtotransport majmuaining atmosfera havosiga zararli keskin talab qilinadigan jiddiy muammolarga sabab bo'ladi:

-motor yoqilg'isining sifati talablarga javob bermayda, etillangan benzin va yuqori darajada oltingugurtga ega bo'lgan dizel yoqilg'isining hamma yerda foydalanishi;

-avtotransport motorlari ta'mir talab bo'lib eskirishi zararli chiqindalarning ortishiga sabab bo'lmoqda;


-respublika korxonalarida diagnostika bazalari kam rivojlangan, yoqilg'i sifatini nazorat qiluvchi asboblari kam, dvigatellardan chiqayotgan gazlarning zaharlilik va qurum darajasini nazorat etuvchi asboblarning yetishmasligi juda ham sezilmoqda;

-avtotransport tabiiy siqilgan va suyultirilgan neft gaziga o'tkazish haddan ziyod sekin suratlar bilan amalga oshirilmoqda, bugungi kunda respublika bo'yicha o'rtacha 20-25 % transport vositalari gazlashtirilgan [1].

Hozirgi kunda viloyatimiz bo'yicha avtomobillar soni quyidagi jadvalda keltirilgan. Viloyat bo'yicha 140480 ta avtotransport vositalari ro'yhatdan o'tkazilgan bo'lib, shundan xususiy sektordagi transport vositalarining soni 122967 tani tashkil qiladi, davlat sektoridagi transport vositalarining soni esa 17521 tani tashkil qildi [2].




Viloyat bo'yicha jami ro'yhatdan o'tgan transport vositalari soni



Quyidagi jadvalda karbyuratorli, dizell davigatelli va gaz balon o'rnatigan avtomobillarning ko'rsatkichi keltarilgan. Gistogrammadan ko'rinib viloyat bo'yicha jami 11778 ta karbyuratorli transport vositasini tashkil qilsa, shundan xususiy sektor bo'yicha 107400 ta bo'lsa, davlat sektori bo'yicha 10331 tani tashkil qiladi [3].


Davlat ro'yhatidan o'tgan transport vositalari soni




Quyida keltiriladigan gistogrammamizni kuzatsak, u yerda karburatorli, dizelli va gaz balonli avtomobillarning soni sonining harakati keltirilgan [4].



Karbyuratorli transport vositalari soni




Dizell davigatelli transport vositalari soni






Gaz balon o`rnatilgan transport vositalari soni



Quyidagi keltirilgan gistigrammani kuzatsak, viloyatimiz bo`yicha avtotransport majmuasidan chiqadigan ifloslantiruvchi moddalar 2022-2023 yillar bo`yicha tahlil qilsak, atmosferaning yer ustki qatlamida zaharli gazlarning ko`p miqdori Andijon shahrida ekanligini kuzatish mumkin [5].

Andijon viloyati bo`yicha transport vositalaridan chiqayotgan zaharli gazlarning miqdori



Tumanlar nomi

Navbatdagi o`rinlarda esa Qo`rg`ontepa, Shahrixon va Xo`djaobod tumanlarida kuzatildi. Viliyatimizning chekka hududlaridan biri Bo`z va Ulug`nor tumanlarida esa eng past ko`rsatkichni kuzatishimiz mumkin [7].

Ushbu holatni oldini olish maqsadida va ekologiyani bulg`atmaslik natijasida quyidagilarga erishish maqsadga muvofiq bo`lar edi:

-motor yoqilg`isining sifati GOST talablariga javob beradiganini qo`llash, etillangan benzin va yuqori darajada oltingugurtga ega bo`lgan dizel yoqilg`isidan foydalanmaslikka erishish;

-avtotransport motorlari ta`mirini o`z vaqtida nazoratqilib borish va zararli chiqindalarning ortishinin kamaytirishga erishish;

-viloyat korxonalarida diagnostika bazalarini keskin ko`paytirish va rivojlantirish, yoqilg`i sifatini nazorat qiluvchi asboblarni majmuasini ko`paytirishga erishish;

-dvigatellardan chiqayotgan gazlarning zaharlilik va qurum darajasini nazorat etuvchi asboblarning sonini ko`paytirish kerakligi;

-avtotransport tabiiy siqilgan va suyultirilgan gazlarga o`tkazishni ko`paytirish;

-viloyat bo`yicha barcha transport vositalarini ekologiya bo`limidan laboratoriyadan o`tkazish kerak [8].

#### ADABIYOTLAR RO`YXATI .

9. Toshtemirov D.E., Niyozov M.B., Yuldashev U.A., Irsaliev F.Sh. Resource support of distance course information educational environment // Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 5, 2020, pp. 399-400

10. Shoyadbek, T. (2023). LACETTI GENTRA AVTOMOBILINING NAZORAT-OLCHOV ASBOBLARI PANELIGA GAZ BALLONLI MOSLAMA UCHUN DATCHIK ORNATISH LOYIHASI. *IJODKORO`QITUVCHI*, 3(32), 79-81.

11. Axmadjonovich, T. R. S. (2023). YENGIL AVTOMOBILLARDA ISHLATILADIGAN DETALLARINING YEYILISHINI O`RGANISH VA TAHLIL QILISH. *Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari*, 1(1), 332-336.

12. Qosimov, I., & To`raev, S. (2023). ZAMONAVIY AVTOMOBILLARINING RUL TORTQILARIDA QO`LLANILADIGAN KOMPOZITSION POLIMER MATERIALLARI. *Scientific Impulse*, 1(10), 1854-1856.

13. Ahmadjonovich, T. R. S. A. I., & KOMPOZITSION, Y. B. G. B. I. (2022). POLIMER MATERIALLAR TAXLILI. *Ilmiy impuls*.

14. Axmadjonovich, T. S. (2023). KOMPOZIT POLIMER MATERIALLARINING Atrof-muhitga VA INSON SOG`LIGIGA TA`SIRI. *Galaxy xalqaro fanlararo tadqiqot jurnali*, 11, 666-669.

15. Baynazarov, Khayrullo; Turayev, Shoyadbek; Giyasidinov, Abdumannob; Ismailov, Sarvarbek; Maxammadjonov, Nurmuxammad; Sotvoldiyev, Xasanboy Calculation for variations in resistance force during trailer unloading device operation E3S Web of Conferences 2023.



16. Mamadzhanov, Bahodirjon; Shukuraliev, Abrorbek; Mannobboev, Shukhratbek; Turaev, Shoyadbek; Patidinov, Aslidin; Mavlyanova, Shakhnoza Dielectric separation E3S Web of Conferences 2023